

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YUSUPOVA SHOXIDA BATIROVNA

INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALAR TEXNIK
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) on Pedagogical Sciences

Yusupova Shoxida Batirovna

Ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish metodikasi3

Юсупова Шохида Батировна

Методика развития технического мышления студентов на уроках
английского языка.....23

Yusupova Shokhida Batirovna

Methodology for developing students' technical thinking in English classes.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YUSUPOVA SHOXIDA BATIROVNA

INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALAR TEXNIK
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2019.2.PhD/Ped1019 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Olimov Shirinboy Sharofovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Begibayeva Nilufar Djuraxonovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «25» dehabr soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

(504 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0 365) 221-25-87). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «11» dehabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «11» dehabr dagi 24-37 - raqamli reestr bayonnomasi).



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi globallashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan hayotimizga kirib kelayotgan bir davrda, kelajak muhandislarni tayyorlash uchun keng ko'lamdagi vakolatlar mavjud. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim sohasi amaliyotida xorijiy tillarni o'rganish, xususan, muhandislik faoliyati asosiy ko'nikmalarga qo'shimcha ravishda tafakkur hamda ingliz tili qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z bilimi, kuchi, imkoniyatlarga tayanadigan, jamiyat, davlat manfaatlarini, o'z manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurligi, mustaqil, ijodiy fikrlovchi, zamonaviy fan-texnika va uning ishlash texnologiyasini mukammal egallagan tadbirkor mutaxassislarni tayyorlash va ularning kommunikativ kompetentsiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo mamlakatlari o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bilan birga xorijiy tillarga, xususan, ingliz tiliga qiziqish tobora oshib bormoqda. Dunyo bo'yicha keskin rivojlanib borayotgan zamonaviy texnik ta'limda talabalarga produktiv tafakkurni o'rgatish, o'z g'oyalarini baholash va tahlil qilish, tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim sohasida yaxshi o'qitilgan yuqori malakali kadrlarni yetishtirish, xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish davomida faqat tilni egallash ko'nikma va malakalarinigina emas, balki texnik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ilmiy asoslashga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"¹ kabi vazifalar belgilab berilishi oliy ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribalar asosida ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish, o'z mutaxassisligini ingliz tilida biladigan, sifatli, kadrlar imkoniyatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq sifatli kadrlar shtatini ko'paytirish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XXI asrning dastlabki yillarida xorijda, shu jumladan mamlakatimizda ham ta'limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida talabalarining yangi, nostandart vaziyatlarda tez harakat qilish, mavjud axborot manbalarini tahlil qilish va atrofdagi makonni o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi dolzarbdir.

Tafakkurning umumiy nazariyasi D.Bruner, L.S.Vigotskiy^{2,3}, S.L.Rubinshteyn⁴, O.K.Tixomirov⁵, ta'limni rivojlantirish nazariyasi P.Ya.Galperin⁶, V.V.Davidov, N.F.Talizina, D.B.Elkonin^{7,8}, T.V.Kudryavsev⁹, M.V.Muxina¹⁰ kabi MDH olimlari tomonidan o'rganilgan, texnik tafakkurning uch komponentli tuzilishi haqida tushunchasi, ta'limda o'quv vazifalari tizimini qo'llash T.V.Kudryavsev, I.Ya.Lerner, D.Tollingerova, A.Ye.Yesaulov, o'quv jarayonini faollashtirish nazariyasi N.M.Zvereva, M.N.Skatkin, ta'lim va tarbiyada texnologik yondashuv V.P.Bespalko, M.V.Klarin, G.K.Selevko, V.D.Simonenko¹¹, texnik muammolarni hal qilish orqali o'quv jarayonini faollashtirish T.V.Kudryavsev,

² Выготский, Л.С. Мышление и речь / Л.С. Выготский. – Москва: Лабиринт, 1996. – 414 с.

³ Vygotsky, L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. USA: Harvard University Press, 1978. – 170 p.

⁴ Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии [Текст] / С.Л. Рубинштейн. - СПб.: Изд-во «Питер», 2001. - 720 с.

⁵ Тихомиров О. К. Психология мышления: Учебное пособие. Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1984. – 272 с.

⁶ Гальперин, П.Я. Современное состояние теории планомерного формирования умственных действий / П.Я. Гальперин, Н.Ф. Талызина // Вестник МГУ. Серия Психология. – 1979, -№ 4. – С. 54-63.

⁷ Эльконин, Д.Б. Избранные психологические труды [Текст] / Д.Б. Эльконин / Под ред. В.В. Давыдова, В.П. Зинченко. - М.: Педагогика, 1989.-554 с.

⁸ Возрастные возможности усвоения знаний / Под ред. Д.Б. Эльконина, В.В. Давыдова. – Москва: Просвещение, 1966. – 442 с.

⁹ Кудрявцев Т.В. Психология Технического мышления. дисс. док. пед. наук. – Москва, 1971.

¹⁰ Мухина, М.В. Развитие технического мышления у будущих учителей технологии и предпринимательства средствами познавательных заданий [Текст]: дис. ... канд. пед. наук. - Нижний Новгород, 2003.-210 с.

¹¹ Симоненко, В.Д. Основы технологической культуры [Текст] / В.Д. Симоненко. - Брянск: Изд-во БГПУ, 1998. - 268 с.

B.A.Sokolov, I.S.Yakimanskaya, D.I.Obshadko, O.A.Bulavenko¹², kabi pedagog hamda psixologlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Mehnat psixologiyasida amaliy tafakkur muammolari bo'yicha tadqiqotlar L.S.Nemereshenko¹³, A.M.Averin, R.A.Ataxanov, B.D.Dushkov, S.D.Petrova¹⁴, B.F.Lomov, B.D.Shadrikov, shuningdek, kasbiy va texnik faoliyatning umumiy muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar N.P.Kaloshina, T.V.Kudryavsev¹⁵, S.E.Matushkin, K.K.Platonov, V.A.Skakun kabi olimlarning asarlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonlik psixolog tadqiqotchilar tomonidan ham tafakkur, ijodiy faoliyat, mustaqil fikrlash xususiyatlari, ta'lim jarayonida tafakkurni rivojlantirish masalalariga doir izlanishlar olib borilgan, jumladan E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, N.S.Safayev, Z.T.Nishanova¹⁶, K.Q.Mamedov¹⁷, E.Z.Usmonovalar talabalar tafakkurining psixologik mexanizmlari muammolari sifatida, N.M.Qo'ziyev¹⁸ kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida talabalarining texnik tafakkurini rivojlantirish muammolari o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan Atkinson W¹⁹. William, Derek Anthony Cabrera²⁰, Jennifer H.Reed, Germelina J.Rey, Debra McGregor, D.Q.McInerny²¹, C.McGuinness²², Dj.Dyui, J.P.Guilford, I.Arshava, A.Y.Xilman tafakkur hamda ta'lim tizimlarini rivojlanishi, tafakkur orqali ingliz tilini o'rganish bo'yicha maxsus malakalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash muammolariga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda texnik tafakkurni rivojlantirish borasida nazariy va amaliy ahamiyatga molik ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim metodlaridan foydalangan holda talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Buxoro davlat universitetining 2017-2021 yillarga

¹² Булаченко, О.А. Психолого-педагогические условия формирования технического мышления у будущих учителей технологии и предпринимательства: Дис. ...канд. пед. наук. [Текст] / О.А. Булаченко. — Брянск, 1999. - 190 с.

¹³ Немецешенко, Л.С. Дидактические условия естественнонаучной подготовки будущих учителей технологии и предпринимательства [Текст]: автореферат дисс. ...канд. пед. наук. — Брянск, 1999. - 21 с.

¹⁴ Петрова С.Д. Эвристические задачи как средство развития технического мышления студентов колледжа: учебно методическое пособие / С.Д. Петрова, И.Д. Белоновская — Оренбургский государственный университет — Оренбург: ОГУ, 2016 — 206 с.

¹⁵ Кудрявцев, Т.В. и др. Психологические проблемы технического интеллекта и технического творчества / Т.В. Кудрявцев. — Москва: Отдел научной информации НИИ ВШ, 1977. — 48 с.

¹⁶ Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi, 2005.

¹⁷ Мамедов К.К. и др. Особенности динамики самооценки учащихся вспомогательной школе. В сборнике - Т., 1986.

¹⁸ G'oziyev E.G'. Psixologiya. — Toshkent: O'zMU «Universitet», 2008. — 352 b. 2. Qo'ziev N.M. Texnika yo'nalishlari talabalarida texnik tafakkurni rivojlantirish. O'quv qo'llanma. — Qarshi, 2020. — 100 b.

¹⁹ Atkinson W. William The Art of Logical Thinking / William W. Atkinson. — NC.: LuluPress, 2012. — 227 p.

²⁰ Derek Anthony Cabrera. Systems thinking. A Dissertation Presented to the Faculty of the Graduate School of Cornell University in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. 2006.

²¹ McInerny D. Q. Being Logical: A Guide to Good Thinking / D.Q. McInerny. — Los Angels.: the Hardcover edition, 2012. — 301 p.

²² McGuinness, C. From thinking skills to thinking classrooms. Research brief, 1999. — 115 p.

mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-002 raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitishda talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va metodikalarini aniqlash hamda talabalarning texnik tafakkurini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirish, talabalarning texnik tafakkur imkoniyatlarining ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, dolzarb muammo ekanligi, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ilmiy jihatdan asoslash;

ingliz tili darslarida talabalarda texnik tafakkurini shakllantirishda samarali bo'lgan omillar, mazmunan anglash usullarini qo'llashning modelini ishlab chiqish va ilmiy-metodik asoslash;

ingliz tili darslarida talabalarning texnik tafakkurini rivojlantiruvchi tizimni shakllantirishga xizmat qiluvchi inovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samarali usullarini ishlab chiqish;

talabalar texnik tafakkurining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi kommunikativ ko'nikmalar (lug'at boyligi)ni rivojlantirishning usullarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Jizzax politexnika instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabalarining ingliz tili darslarida texnik tafakkurini rivojlantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish mazmuni, shakli, metodi hamda vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida o'quv-ilmiy manbalar, DTSdagi konseptual fikrlarni tahlil qilish, o'rganish, analitik obzor kabi nazariy usullardan; modellashtirish, retrospektiv tahlil, diagnostika, suhbat, so'rovnomalar, intervyu, tajriba-sinov, test, matematik-statistik tahlil kabi empirik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilini o'rgatish jarayonida texnik tafakkur tushunchasi ilmiy-metodik jihatdan asoslanib, ingliz tilini o'rganayotgan talabalarda texnik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik ta'minot intellektual imkoniyatlar ochiq ifodalangan ko'rsatmalarni shakllantirish orqali takomillashtirilgan;

o'quv jarayonida texnik tafakkurni o'stiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqishda autentik materiallarning kommunikativ xususiyatlari aniqlangan va texnik tafakkurini shakllantirishda mazmunan anglash usullari negizidagi til o'qitish metodikasiga (CLIL content and language integrated learning) asoslangan mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish barobarida ingliz tilini o'qitishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi aniqlashtirilib, interaktiv va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar taklif qilingan;

ingliz tili darslarida talabalarda texnik tafakkur kompetensiyalarini shakllantirish kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning retrospektiv usullari hamda mustaqil ta'lim jarayonida tizimli integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnik tafakkur kompetensiyalarini shakllantirishga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar, funktsiyalari hamda tamoyillari belgilangan, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlangan;

ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish asosida ta'lim maqsadiga erishishni, uning mazmunini ishlab chiqishni, mustaqil ta'lim olishga tayyorlash metodlari va vositalarini ta'minlovchi bo'lajak texnik muhandislarini tayyorlash maqsadida "English for oil and gas industry students" nomli darslik yaratilgan;

ta'lim muhitida ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlanganlik darajasini ishonchli tashxis qilishda qo'llanishi mumkin bo'lgan uslubiy vositalar amaliyotda foydalanish uchun taqdim etilgan;

ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishda individual va guruh tarzda foydalanish mumkin bo'lgan maxsus texnologiyalar, mashqlar va topshiriqlar, til o'rganish kursi tavsiya qilingan;

ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish metodikasi uchun mo'ljallangan baholash tizimlashtirilgan va sinovdan o'tkazilgan hamda pedagog kadrlar, ijtimoiy soha mutaxassislari, amaliyotchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usul va ilmiy qarashlarning ishonchli manbalardan olinganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari natijalarining ko'rgazmaliligi, ularning matematik-statistik metodlar asosida tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etilganligi hamda erishilgan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan rasmiy tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishning metodikasiga oid yangi nazariy yondashuv, g'oya, tavsiyalar bilan boyitilgan, mavjud ta'lim tizimi, xususan oliy ta'lim muassasasida ingliz tilini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish jarayoni mazmuni modulli-kredit ta'lim talablariga asoslangan zamonaviy qarashlar shuningdek, talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish metodikasining mazmuni va texnologik asoslarini takomillashtirishda foydalanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish metodikasiga doir olingan ma'lumotlardan ta'lim

jarayonida talabalar bilan muammoli, hamkorlik, loyiha- tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilishda, ta'lim oluvchilar tafakkurini diagnostika qilishda, yoshlar ijodiyot markazlari talabalari bilan faollashtiruvchi mashg'ulotlar tashkil etishda, shuningdek, bildirilgan tavsiya va takliflardan oliy ta'lim mazmunini takomillashtirish, ingliz tili o'rganuvchilarining pedagogik faoliyatini samarali tashkil qilish, ingliz tilini o'qitish bo'yicha o'quv dasturlari, qo'llanma va o'quv materiallari mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish metodikasi bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tilini o'rgatish jarayonida texnik tafakkur tushunchasi ilmiy-metodik jihatdan asoslanib, ingliz tilini o'rganayotgan talabalarda texnik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik ta'minot induktiv metod, intellektual imkoniyatlar ochiq ifodalangan ko'rsatmalarni shakllantirish orqali takomillashtirilganligiga doir xulosa va natijalardan O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda №538-521raqamli nashr guvohnomasi asosida "English for oil and gas industry students" nomli darslikni yaratishda foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2024-yil 13-iyuldagi №02/-01-87/506-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha manbalar va resurslar va ingliz tilini o'rganayotgan talabalarda texnik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik ta'minot kengaytirilgan;

o'quv jarayonida texnik tafakkurni o'stiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqishda autentik materiallarning kommunikativ xususiyatlari aniqlangan va texnik tafakkurini shakllantirishda samarali bo'lgan omillar, mazmunan anglash usullari asosida til o'qitishga (CLIL content and language integrated learning) asoslangan mashqlar tizimi ishlab chiqilganligiga oid ilmiy xulosa va tavsiyalardan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 2019-2023-yillarda Erasmus dasturi doirasida amalga oshirilgan 610170-EPP-1-2019-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP ELBA-raqamli "Markaziy Osiyoda katta hajmli ma'lumotlarning intellektual tahlili bo'yicha o'quv-tadqiqot markazlarini ochish va kurslarni ishlab chiqish" mavzudagi xalqaro amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2024-yil 01-iyuldagi №02/-01-87/466-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalari ingliz tili darslarida talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilgan;

talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish asosida ularni ingliz tilini o'qitishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi aniqlashtirilib, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar taklif qilinganligiga bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom, Buxoro", "Najot bilimda" teleko'rsatuvlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 3-iyuldagi №01-09-101-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlanib, ko'rsatuvlarda bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri innovatsiyalar va muhandis kadrlarning muhim

ahamiyati, o'z mutaxassisligini ingliz tilida biladigan, sifatli kadrlar imkoniyatini oshirish, xususan, ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish metodikasi hamda ularning ahamiyati haqida dolzarb fikrlar bildirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 12 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ishi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 12 ta maqola, ulardan, 6 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari"** ga bag'ishlangan bo'lib, unda ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, texnik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu bobda talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari ilmiy-pedagogik jihatdan izohlangan.

Rivojlanayotgan mehnat bozori va jamiyatdagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar talablarini inobatga olgan holda turli darajadagi ishchilar va mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlarini joriy etish ta'lim sohasidagi yondashuvlarning tubdan yangi mazmunini belgilab beradi. Vaqt yosh mutaxassislarni tayyorlashga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda, ular zamonaviy ishlab chiqarishda inson mehnati funktsiyalarining o'zgarishi bilan bog'liq.

Tafakkur bu borliqni umumlashtirilgan holda bilvosita aks ettirishdir. Tafakkurni birinchi muhim belgisi umumlashganlikdir. Tafakkur natijasida inson shunday informatsiyaga ega bo'ladiki bu informatsiya turli ob'ektlardan olingan ko'p miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlangan hamda shu ob'ektlarning eng muhim xislatlarini qisqacha ixchamlashtirilgan shakldagi yig'indisidan iborat bo'ladi. Tafakkur faqat insoningagina xos bo'lgan sub'ektiv psixik hodisadir.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar,

chizmalar, belgilar, til kabi jismlari va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi.

Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta'sir ko'rsatmay, ko'pchilik hollarda asboblari ko'magida olingan qo'shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi vositali tarzda aks ettirishdir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarning tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo'lishi bilan inson ichki, barqaror o'zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi.

M.I. Enikeevning fikriga ko'ra, tafakkur - bu kognitiv muammolarni hal qilish, aniq vaziyatlarda sxematik yo'nalish uchun muhim bo'lgan voqelikning barqaror, muntazam xususiyatlari va munosabatlarini umumlashtirilgan va bilvosita aks ettirishning ruhiy jarayoni.

Tafakkurning sifat jihatdan o'ziga xos mazmuni hamda ko'rinishlari mavjud. Shulardan biri texnik tafakkur bo'lib hisoblanadi.

Texnik tafakkur mehnatni samarali tashkil etish, mehnat faoliyati natijalarini tushunish bo'yicha texnologik bilim va tajriba to'planishini ta'minlovchi mehnat ta'limining asosiy mexanizmlaridan biri; biznesga ijodiy munosabatni, ishlab chiqarishni ratsionalizatsiya qilish istagini shakllantirish; hissiy yuksalish va fidoyilikni yaratish demakdir.

Texnik tafakkur - faoliyat predmetining xususiyatlari bilan ajralib turadigan fikrlash turlaridan biri (bir qatorda matematik fikrlash, pedagogik, boshqaruv va boshqalar). Texnik tafakkur texnologiya sohasida band bo'lgan kishilar oldida paydo bo'ladigan vazifalar (uni loyihalash, ishlab chiqarish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va boshqalar) faoliyatning boshqa sohalarida hal qilinadigan vazifalarga nisbatan ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli ajratilgan. Bu o'ziga xoslik shaxsning aqliy faoliyat yuritadigan tasavvurlari, g'oyalari, shuningdek uning qiziqishlari, moyilliklarini anglatadi.

Texnik fikrlash xususiyatlarini ko'rib chiqishda bir nechta tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi tendentsiya - amaliy faoliyatni amalga oshirishni tavsiflovchi individual xususiyatlarni (yoki ularning turli kombinatsiyalarini) tanlash: amaliy muammolarni tayyorlash va hal qilishda mustaqillik, hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarning xilma-xilligi, ularni hal qilishning ijodiy tabiati, bajarilishi, ko'rinadigan va ko'rinmas jarayonlar o'rtasidagi funksional bog'liqliklarni tushunish va hokazo.

Ikkinchisi, texnik fikrlash xususiyatlarini texnik bilimlar zaxirasi va ularni o'zlashtirish usuli bilan tushuntirish (birinchi navbatda, fizika va texnik mexanikadagi bilimlarning ahamiyati qayd etilgan). Uchinchi tendensiya texnik fikrlash asosini texnik muammolarni hal qilishda shaxsning ba'zi umumiy qobiliyatlari bilan bog'laydi, masalan: tushunchalar boyligi, birlashtirish, fikr yuritish, mantiqiy aloqalarni o'rnatish, diqqat va konsentratsiya qobiliyati; ob'ektlarning fazoviy o'zgarishi va boshqalar.²³

²³ Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы. Ростов-н\Д.: Феникс, 2002. 544 с.

Texnik tafakkurni rivojlantirish metodologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- faoliyat - har qanday rivojlanish har qanday faoliyat jarayonida sodir bo‘ladi;
- individuallik - shuni hisobga olish kerakki, har bir talabaning individual xususiyatlari uning qobiliyatini faqat ma’lum chegaralarda o‘rgatish imkonini beradi;

- ketma-ketliklar - eng oddiylaridan boshlab, ularni o‘zlashtirganda asta-sekin murakkablashtiradigan mashqlarni taklif qilish kerak;

- bosqichma-bosqich - o‘quv faoliyatida qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashqlarni o‘z ichiga oladi, keyingi bosqichdan boshlab, avvalgisini chetlab o‘tib bo‘lmaydi;

- sikliklik - rivojlanish mashqlarini ma’lum sikllarga kiritish kerak, bu sikllarni o‘quv yili davomida bir necha marta takrorlash maqsadga muvofiqdir;

- psixologik qulaylik - talaba o‘z muvaffaqiyatsizliklarini his qilmasligi kerak;

- o‘qituvchining psixologik xizmat va ota-onalar bilan hamkorligi. Texnik fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- o‘qitish uslubida an’anaviylik, kundaliklik, monotonlikdan qochish;


- ortiqcha ish va mashg‘ulotlarning ortiqcha yuklanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- kognitiv qiziqishlarni rag‘batlantirishdan foydalanish;

- turli texnikalar (illyustratsiyalar, o‘yinlar, krossvordlar, hazil vazifalari, ko‘ngilochar mashqlar) yordamida kognitiv qiziqishlarni rag‘batlantirish;

- aqliy faoliyat va tarbiyaviy ish usullarini maxsus o‘rgatish, o‘qitishning muammoli-qidiruv usullaridan foydalanish.

Texnik tafakkur uch komponentdan iborat: tushuncha – tasvir – harakat:



1-rasm. Texnik tafakkur komponentlari

Dastlabki bosqichda talabalarning texnik faoliyati ob'ektni idrok etish va kuzatishdan boshlanadi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, texnik tafakkurni rivojlantirish uchun talabalar eng oddiy modellarni, mexanizmlarni, shuningdek, dizayni sodda bo'lgan mahsulotlarni bajarishlari kerak.

Talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirish uchun eng muhimi o'quvchida ijodiy izlanish muhitini yaratishdir.

Texnik tafakkurni rivojlantirishning juda muhim psixologik xarakteristikasi - bu qiyin sharoitlardan foydalangan holda o'rganish. Buning uchun maxsus usullar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning qisqacha tavsifi quyida keltirilgan.

Texnik tafakkurni rivojlantirish talabalar tomonidan texnik bilimlarni o'zlashtirish sifatining o'sishiga yordam beradi va shuning uchun bo'lajak texnologiya va tadbirkorlik o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish uchun juda muhimdir. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislarda, ayniqsa texnologiya va tadbirkorlik o'qituvchisida texnik tafakkurni o'rganish va uni rivojlantirishning didaktik yondashuvini ishlab chiqish juda dolzarb muammodir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **"Ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari"** deb nomlangan bo'lib, unda ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishning mazmuni, talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishning zamonaviy shakl, metod va vositalari bayon etilgan.

Hozirgi vaqtda texnologik taraqqiyot global miqyosda insoniyat hayotini, ustuvorliklarini va tafakkurini o'zgartirdi. Yaqin o'tmishda ham insoniyat kompyuter texnologiyalarini orzu qilgan va bugungi kunda ular deyarli har bir faoliyatda zarur vositadir. Va eng muhimi, texnik vositalarni takomillashtirish va o'zgartirish jarayoni davom etmoqda.

Yangi ishlanmalar nafaqat ishlab chiqarish va mahsulotni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar beradi, balki bizni yangi o'quv jarayonini ishlab chiqishga ham yo'naltiradi. Buning sababi shundaki, ta'lim muassasasi bitiruvchisi kelajakdagi faoliyat sohasida malakali bo'lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, o'quv jarayoni yangi ixtiro qilingan qurilmalarni o'rganishni qamrab olishi kerak. Ammo bu yerda savol tug'iladi, buni qanday qilish kerak? Zero, texnologik taraqqiyot shu qadar tez rivojlanmoqdaki, o'quv jarayonida olingan bilimlar kasbiy faoliyatga kirishguningizcha eskirib qoladi.

Shunday qilib, o'quv jarayonini tashkil etish jarayoniga, xususan, quyidagilarga e'tibor berish kerak: o'quv mazmunini yo'naltirish, maktabdan texnik tafakkurini shakllantirishni o'z ichiga olishi kerak; asosiy o'qitish usullaridan biri tadqiqot faoliyati bo'lishi kerak bo'lgan o'quv jarayonini tashkil etish tuzilmasi.

Ushbu masalani ko'plab tadqiqotchilar "zamonaviy muhandis" tushunchasi ostida yuqori madaniyatga ega bo'lgan, zamonaviy texnologiya va texnologiyani, iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshi biladigan, texnik masalalarini hal qilishda texnik usullaridan qanday foydalanishni biladigan va shu bilan birga ixtiro qilish qobiliyatiga ega mutaxassisni tushunadilar.

Texnik tafakkur - texnika vositalarini yaratish va texnologiyalarni tashkil etish

maqsadida bilim, uslub, texnikaga bo'lgan texnik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan amaliyotning predmet tuzilmalarining morfologik va funksional munosabatlarini faol aks ettirishning o'ziga xos shakli.

Texnik tafakkurning shakllanishi bevosita kasbiy (texnik, konstruktorlik) masalalarni yechish bilan bog'liq, ya'ni amaliy masalalarga asoslanadi. Insonning umuminsoniy manfaatlarini ifodalovchi, inson hayotini eng oliy qadriyat deb biladigan ilmiy gumanizm muhandis tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning asosiga aylanadi.

O'smirlik davridagi fikrlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, texnik tafakkurining quyidagi mezonlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Kognitiv mezon - vaziyatni adekvat tan olish, tadqiqot faoliyatining borishini bashorat qilish, tadqiqot vazifasini ajratib ko'rsatish qobiliyati, fikrlashning mustaqilligi va moslashuvchanligi, vaziyatni "noto'g'ri ko'rish" ni yo'q qilish, erta xulosalar va baholashlardan qochish, konstruktiv usullarni tushunish, tadqiqot faoliyatini olib borish, vaziyatdan tashqari muammoni aniqlash qobiliyati, o'zining mantiqsiz g'oyalaridan xalos bo'lish.

Axloqiy va hissiy mezon - bu tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun motivatsiyaning mavjudligi, tadqiqot faoliyatining ham, shaxsiy hissasining ham muhimligini anglash, tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun mas'uliyat hissi.


Refleksiv mezon - bu maqsadni belgilash, o'z-o'zini kuzatish, introspeksiya, o'z-o'zini aks ettirish, o'z tajribasini konstruktiv qayta ishlash, tashqi talablarning o'zaro bog'liqligi asosida o'ziga adekvat talablarni belgilash va tartibga solish qobiliyati.

Tashkiliy-irodaviy mezon – maqsadlilik, qat'iyatlilik, o'z-o'zini tartibga solish, faoliyatni nazorat qilish qobiliyati.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda.

Chet tili o'qitish metodikasining fan sifatida o'z nazariyasi, amaliyoti va tarixi bor. Chet tili o'qitish mazmunining ham ta'lim mazmuni tarkibiga kiruvchi ilmiy kategoriyasi o'z nazariy va amaliy tomonlari, tarixiy manbalari bo'lib, tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib kelmoqda. O'qish gapirish bilan aloqador, unga bog'liqligi bor. O'quvchi o'qigan ma'lumot orqali gapiradi, ma'lumot beradi. U qancha ko'p o'qisa, shuncha gapirishi uchun ma'lumotga ega buladi. Shu sababdan o'quvchi, talaba ichida, ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay o'qib gapirish uchun ma'lumot to'playdi. O'qish gapirish uchun ma'lumot manbaidir. Talaba o'qigan, tinglagan, gapirgan materiallarini, ma'lumotini yozma ifodalaydi. Ular ma'lumotni yozma ifodalasa, uning xotirasida, yodida yaxshi qoladi. Gapirishi osonlashadi. Yozuv ham gapirish ma'lumotini, materialini esda qolishiga yordam beradi.

Mohiyatiga ko'ra interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.



2-rasm. Ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish metodikasi modeli

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish orqali talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirishda interfaol ta'limni tashkil etish juda muhim hisoblanadi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

2. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

3. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b.

II. Interfaol ta'lim metodlari va ulardan foydalanish tartibi. Ayni o'rinda bir guruh interfaol ta'lim metodlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash tartibi to'g'risida so'z yuritiladi.

2.1. "Aqliy hujum" strategiyasi talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalardan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

2.2. "Mind-Map" ("Aqliy-karta") usuli "xotira xaritasi" fikrlar, g'oyalar, suhbatlarni yozib olishning oddiy texnologiyasidir. Yozish qog'ozda "tartibsizlik" shaklida tez, assotsiativ tarzda sodir bo'ladi. Mavzu to'g'ridan-to'g'ri varaqning markazida bo'lishi va istalgan vaqtda ko'rish markazida bo'lishi kerak. Shunday qilib, biz rasmga qaraymiz yoki notanish hududda harakat qilamiz, markazdan boshlab, atrofga har tomonga qaraymiz.

2.3. "Baliq skeleti" grafik organayzeri talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

2.4. "Swot-tahlil" strategiyasi muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

2.5. "Sinkveyn" strategiyasi. "O'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi"da har bir talaba va talabalar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun "Sinkveyn" strategiyasini qo'llash samarali ekanligi aytiladi.

